Olimova Shahina Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

ALEKSANDR FAYNBERGNING „PAXTAKOR-79'' FUTBOL JAMOASI XOTIRASIGA YOZGAN SHE'RINING BADIIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqola rus millatiga mansub, lekin qalbi o'zbek ijodkor Aleksandr Faynbergning „Paxtakor-79'' futbol jamoasiga bag'ishlangan she'ri badiiy-falsafiy usulda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shoir she'rining g'oyaviy-badiiy yondashuvi, ramziy tasvir vositalari va falsafiy qarashlari tubdan yoritiladi. Ushbu she'r avtohalokatga uchragan futbol komandasi haqida yozilgan bo'lib, necha yillar davomida adabiyot ixlosmandlarining e'tiborini tortib kelmoqda. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Aleksandr Faynberg ushbu she'rida futbol jamoasiga o'z dil izhorlari badiiy uslubda, g'oyaviy-falsafiy jihatdan yetuk holda yetkazib bergan.

Kalit so'zlar. „Osmondagi stadion'' she'ri badiiy tahlili, ramziy tasvirlar, adabiyot ixlosmandlarining qiziqishi, yuksak g'oyaviy tushuncha.

Kirish. Shoirlar ko'pincha vaziyatni tahlil qilish jarayonida, aytolmagan dil izhorlari hamda fikrlarini o'z she'rlari orqali ifoda etadilar. Har bir ijodkor o'z uslubiga va yondashuviga ega bo'lib, boshqa ham kasblaridan aktual fiklari va purma'no ijodi bilan ajralib turishga harakat qiladi. Aleksandr Faynberg ijodida ham boshqa ijodkorlarga o'xshamagan samimiyat, ruhiy dalda, ochiq fikrlar mavjud bo'lganligi tufayli uning she'rlari adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq qarshi olindi. Ijodkor hayoti haqida to'xtaladigan bo'lsak, Aleksandr Faynberg 2009-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning ota-onasi ijodkor tug'ilishidan ikki yil avval Novosibirskdan ko'chib keladi. Avval o'rta maktabni so'ng, Toshkent topografiyasi bitirgan. Vatan oldidagi burchlarini to'laqonli his qilgan holda, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tagan.1965-yilda Toshkent universitetini tugatgach, 1965-1969 yillar davomida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritgan. Aleksandr Faynbergning ilk she'ri „Etyud'' 1967-yilda chop etilgan. Aleksandr Faynbergning 15 ta she'riy to'plami hamda 20 ta multifilmga yozgan ssenariylari mavjud. Vafotidan so'ng, ikki jildli sayllanma nashr etiladi. „Mening akam'', „Osmondagi stadion'', „Issiq quyosh ostidagi uy'' kabi kinofilmlarga ssenariylar yozgan hamda ushbu asarlar turli kino studiolarda sur'atga olingan. „Paxtakor-79'' she'ri g'oyaviy-badiiy jihatdan mohirona tarzda yozilgan. Ushbu she'rda shoir qalbida kechgan his-tuyg'ularini, o'y-fikrlarini she'riy tarzda ifodalagan. She'r 1999-yilda yozilgan bo'lsada, hali-hanuzgacha she'riyat shaydolarining fikr-u hayolini band qilib kelmoqda. Maqola davomida ushbu she'rning ramziy tasvirlari, badiiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz hamda tahlil qilamiz.

Muhokama.Aleksandr Faynberg ijodida „Paxtakor-79'' she'ri alohida o'ringa ega hisoblanib, ushbu she'r asosida kino ijodkorlari tomonidan „Osmondagi stadion'' filmi sur'atga olingan. She'rni tahlil qilsak, uning ilk misralarida futbol jarayoni badiiy vositalar orqali tasvirlanadi. Futbol o'yini bo'lib o'tadigan chimzordagi holat bilan boshlanib, she'r o'yin jarayonini yoritishga harakat qiladi:

Chimzorda o'ynaydi-o'ynaydi shamol,

To'p uchar, to'p uchar bamisli xayol

Naqadar zo'r zarba darvoza tomon,

Hayotni gol bilan yutadi futbol.

Keyingi baytda esa futbol ichidagi holat bevosita tashqaridagi tomoshabinlar nigohiga ko'chadi. Tomoshabinlar hayajon ichida futbol jarayonini kuzatadilar, har bir urilgan gol ichki quvonch va hayrat bilan qabul qilinadi. O'yindan, hattoki, to'r titrashi badiiy tasvir va metafora usuli bilan tasvirlanadi. Ushbu misralarni o'qigan she'riyat ixlosmandlari haqiqiy futbol atmosferasini his qila oladilar.

„Agarda bilmasang oldda nelar bor, Ishongin, noumid bo'lmagin zinhor…'' deya boshqanuvchi bandda ko'rishimiz mumkin, shoir futbol va muxlislarga o'z psixologik yordamini berishga harakat qiladi. Ularni umidlantirib, oldindan nima bo'lishi bilmaslik yaxshi gumonga olib borishi kerakligini ta'kidlaydi. Misralarning g'oyaviy davomi sifatida shoir futbol ixlosmandlarini futbolchilarni yaxshi kayfiyatda o'yinga kuzatib qo'yishga, ularning muvafaqqiyatlarini olqishlab, omadsiz gollarda ham qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Oramizda kim u asli chempion?

Balki men, balki u, qismatga ayon.

Parvoz maydonida intiq kuzatib,

Xayrlashib qolar pastda stadion.

Shoir o'quvchilarga asl chempion kimligi haqida savol beradi. Javobni ham o'zi berishga harakat qilib, g'olibni hech kim bilmasligi, u faqat qismatga ayon ekanligi ta'kidlaydi. Tomoshabinning vazifasi esa futbolchilarni yaxshi kayfiyatda kuzatishi lozimligi uqtiradi.

Bilamizki, Paxtakor futbol jamoasi avtohalokatga uchraydi va afsuski, futbolchilar vafot etadi. Shoir yerdagi o'yinlar endi osmonda bo'lishiga ishora qilib, futbolchilar o'zga maydonda muzaffar qozonishini aytadi:

Biz uchdik, biz uchdik ko'm-ko'k osmonda,

Muzaffar bo'lgaymiz o'zga maydonda

Kim avval, kim keyin tug'ildik, ammo

Chempion bo'lgaymiz birlashgan onda.

She'rning xulosa qismida shoir futbolchilar ichida o'ylagan fikrlarni yozishga harakat qiladi. Moviy osmonda chempion bo'lishga harakat qilib, ular osmonda uchadi, endi yer maydonida emas, ko'kning maydonida g'alaba qozonishi haqida futbolchilar o'ylagan, ammo aytishga ulgurmagan fikrlarini bitadi. So'nggi misralarda, inson xoh erta, xoh keyin tug'ilmasin, baribir, o'lim muqarar ekanini tushuntiradi. Agar insonlar bir xayrli va yaxshi amal ustida birlashadigan bo'lsa, albatta, bu ish muvafaqqiyatli bitib, g'olib bo'lishini o'quvchiga tushuntirishga harakat qiladi.

Xulosa. Tahlil davomida ko'rishimiz mumkinki, „Paxtakor-79'' she'ri puxta falsafiy g'oya bilan yozilgan. She'rdagi har bir bayt o'quvchining qalbiga kirib boradi, uni o'ylashga, tafakkur qilishga chorlaydi. Yuqorida tahlil qilingan misralar orqali shuni anglaymizki, „ Paxtakor-79'' she'ri hayotiy misollar hamda badiiy tasvirlarga boy hisoblanadi. Birgina o'yin

ixlosmandlarining futbolchilar bilan xayrlashuv jarayoniga e'tibor bersak, muxlislar stadiondan futbolchilar bilan samimiy xayrlashib, ularni parvoz maydoniga kuzatadi. Bundan tashqari, ilk misralardayoq o'yin jarayonining boshlanishi qiziq tus oladi. Hayajondan olamonning guvirlashi, to'rning titrashi, futbol maydoni ham qo'rquv, ham ishonchga to'la bo'lgan futbolchilarning o'yinga tushayotgani inson holatni aniq tasavvur qilishiga ko'maklashuvchi badiiy tasvirlar she'rni yanada boyitgan. Umuman olganda, „Paxtakor-79'' futbol jamoasiga bag'ishlangan she'r badiiy xususiyatlari, ramziy tasvirlari hamda falsafiy-g'oyaviy jihati bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Faynberg A. Tanlangan she'riy asarlar. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2004.

2.Faynberg A. She'riyat va tarjima: tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2008.

3.Faynberg A. O'zbek klassik she'riyati tarjimalari to'plami. Moskva: Eksmo, 2011.

4,Faynberg A. Rus tilida o'zbek poeziyasi: tarjima va mulohazalar. Moskva: Progress, 2013.

5.Faynberg A. She'riyatning estetika asoslari. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2016.

6.Faynberg A., Islomov M. Tarjima san'ati: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2017.

7.Faynberg A. She'rlar davri: o'zbek va rus adabiy aloqalari. Toshkent: Sharq, 2019.